

## GYOTENING “G‘ARBU SHARQ DEVONI” ASARIDA SHARQ DONISHMANDLIGI VA G‘ARB MA’NAVIYATI

Murodova Farzona

Termiz Davlat Universiteti O‘zbek Filologiyasi Fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

+998940151206 **E-mail:** [fmurodova906@gmail.com](mailto:fmurodova906@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20513950>

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada nemis adabiyotining buyuk namoyandasi Gyotening “G‘arb va Sharq devoni” asari atroflicha tahlil qilinadi. Asarda Sharq va g‘arb madaniyatining o‘zaro uyg‘unligi, sharqona falsafa va tasavvufiy qarashlarning Gyote ijodidagi aks etishi yoritiladi. Shuningdek, asarning yaratilish tarixi, undagi poetik obrazlar, ramziy ma‘nolar hamda Sharq mumtoz adabiyoti, ayniqsa Hofiz ijodining Gyote dunyoqarashiga ta‘siri ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Maqolada insonparvarlik, ma‘naviy birlik, madaniyatlararo muloqot va badiiy-estetik qarashlarning asardagi ifodasi ochib beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Gyote, “G‘arb va Sharq devoni”, Sharq va G‘arb madaniyati, tasavvuf, falsafa, nemis adabiyoti, mumtoz adabiyot, poetik obraz, ramziylik, madaniyatlararo muloqot, badiiy tafakkur.*

**Abstract.** *This article provides a comprehensive analysis of Johann Wolfgang von Goethe’s work “West–Eastern Divan”, a masterpiece by the great representative of German literature. The study highlights the interaction and harmony between Eastern and Western cultures, as well as the reflection of Eastern philosophy and Sufi thought in Goethe’s creative worldview. It also examines the history of the work’s creation, its poetic imagery, and symbolic meanings, along with the influence of classical Eastern literature—particularly the works of Hafez—on Goethe’s intellectual and artistic outlook. Furthermore, the article explores the expression of humanism, spiritual unity, intercultural dialogue, and aesthetic-philosophical ideas within the work.*

**Keywords:** *Goethe, “West–Eastern Divan”, Eastern and Western culture, Sufism, philosophy, German literature, classical literature, poetic imagery, symbolism, intercultural dialogue, artistic thinking.*

**Аннотация.** *В данной статье проводится всесторонний анализ произведения великого представителя немецкой литературы Иоганна Вольфганга фон Гёте «Западно-восточный диван». В работе рассматриваются взаимодействие и гармония восточной и западной культур, а также отражение восточной философии и суфийских идей в творческом мировоззрении Гёте. Кроме того, освещается история создания произведения, его поэтические образы и символические значения, а также влияние классической восточной литературы, особенно творчества Хафиза, на мировоззрение Гёте. В статье раскрываются идеи гуманизма, духовного единства, межкультурного диалога и художественно-эстетического восприятия, выраженные в данном произведении.*

**Ключевые слова:** *Гёте, «Западно-восточный диван», восточная и западная культура, суфизм, философия, немецкая литература, классическая литература, поэтический образ, символика, межкультурный диалог, художественное мышление.*

Insoniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, turli xalqlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi aloqalar har doim ham tinchlik yoki o'zaro tushunish asosida qurilmagan. Ko'pincha G'arb va Sharq madaniyatlari bir-biriga mutlaqo zid, bir-birini inkor etuvchi ikki xil qutb sifatida talqin qilingan.

Biroq adabiyot va san'at olami har qanday siyosiy va geografik chegaralarni buzib o'tishga qodir kuch ekanligini bot-bot isbotlab keladi. Bu borada nemis she'riyatining cho'qqisi hisoblangan Iohan Volfgang Gyotening xizmatlari beqiyosdir. Gyote o'zining salkam sakson yillik hayoti va ijodi davomida doimo umuminsoniy birlikni, millatlararo ma'naviy ko'prikn qidirdi. Uning ana shu izlanishlari mahsuli bo'lgan "G'arb-u sharq devoni" asari shunchaki bir adibning Sharq ekzotikasiga bo'lgan qiziqishi yoki havaskorlik tabiati emas edi.

Bu asar Yevropada ma'rifatparvarlik inqirozga uchragan, urushlar oqibatida ma'naviy bo'shliq yuzaga kelgan bir davrda, insoniyat qalbini qayta tiklash uchun Sharqning musaffo chashmalaridan najot izlash harakati edi. Gyotening "g'arb- ul sharq devoni bugungi jahon adabiyotida alohida o'rin tutadi. Ushbu asarda Gyote xayolan sharqqa hijrat qiladi va ushbu asarni yozish bilan mashg'ul bo'ladi. Asar shakliy jihatdan ham, mazmun jihatdan ham G'arb va Sharq adabiy an'alarini o'zida mujassamlashtiradi. Asar klassik Sharq devonchilik an'alariga mos ravishda o'n ikki ta tarkibiy qismdan shakllantirilgan bo'lib, ularning har biri yaxlit matn tizimida muayyan g'oyaviy vazifani bajaradi.

Devonning boshlanishi Mog'anniy-noma (Shoir kitobi) deb atalib, u butun asarning muqaddimasi va shoirning ma'naviy dasturi hisoblanadi. "Mog'anniy" so'zi Sharq she'riyatida qo'shiqchi, sozanda, xonanda ma'nolarini anglatadi. Gyote ushbu qism orqali G'arbdagi urushlar va ma'naviy parokandalikdan charchaganini e'lon qiladi. U poklik, osoyishtalik va donishmandlik maskani bo'lmish qadimiy Sharq zaminiga o'zining ma'naviy "hijrat"ini boshlaydi. Bu yerdagi ilk she'rlar shoirning yangi adabiy iqlimga moslashishi va ijodiy erkinlikni his etishi bilan yo'g'rilgan. Ushbu ma'naviy ko'chishdan so'ng bevosita Hofiznoma keladi.

Mazkur qism Gyotening ma'naviy ustoz va ilhom parisi bo'lmish Xoja Hofiz Sheroziy shaxsiga bag'ishlangan. Nemis shoiri Hofiz g'azallaridagi so'z o'yinlari, tasavvufiy ramzlar va dunyoviy go'zallikning qorishib ketishiga tan beradi. Gyote bu yerda Hofizni o'zining ma'naviy egizagi deb atab, uning she'riyati o'lim bilmasligini, asrlar o'tsa-da, insoniyat qalbiga nur ulashishda davom etishini ta'kidlaydi. Sharq she'riyatining bosh asosi bo'lgan ishq va muhabbat falsafasi esa Ishqnoma tarkibida chuqur tahlil qilinadi. Gyote sevgini shunchaki ikki jins vakili o'rtasidagi hissiyot deb emas, balki butun koinotni harakatlantiruvchi, inson qalbini ilohiy darajaga ko'taruvchi ulkan kuch sifatida talqin etadi.

Bu yerda ham klassik Sharqona ishqiy lirikaga xos bo'lgan hijron, visol, vafodorlik va sevgilining beqiyos go'zalligi tasvirlanadi. Insonning hayot yo'li, jamiyatda tutgan o'rni va dunyoning o'tkinchi tabiati haqidagi falsafiy o'y-fikrlar Tafriqnoma qismida qamrab olingan.

Gyote Sharq donishmandlarining hayotiy tajribalariga tayanib, moddiy dunyoning o'tkinchiligini, boylik va amal ortidan quvish qabihlik ekanini ko'rsatib beradi. Inson o'z umrini ilm, ma'rifat va ma'naviy kamolotga bag'ishlashi kerakligi ushbu satrlarning asosiy g'oyaviy poydevoridir.

Gyotening o'z davridagi nemis jamiyati, tushunarsiz tanqidchilar va ijodiy hasadgo'ylarga nisbatan yozgan radikal e'tirozlari Ranjnoma tarkibidan joy olgan. Buning mantiqiy davomi sifatida Hikmatnoma keladi. Bu qism qisqa, lo'nda, maqol va matal shaklidagi she'rlardan, falsafiy to'rtliklardan iborat. Gyote Sharq xalqlari og'zaki ijodi hamda Sa'diy Sheroziy, Jaloliddin Rumi kabi mutafakkirlarning pand-noma an'alaridan ilhomlanib, hayotiy

qonuniyatlarni qisqa satrlarga joylaydi. Yaxshilik va yomonlik, do'st va dushman, saxiylik va baxillik kabi umuminsoniy tushunchalarni sodda va ta'sirchan tilda tushuntiriladi. Dunyoviy qudrat va ijtimoiy to'fonlar mavzusi Temurnoma deb nomlangan qismda aks etgan. Bu qism to'liq buyuk sarkarda va hukmdor Amir Temur shaxsi, uning harbiy yurishlari va saltanat qudratiga bag'ishlangan. Gyote Temur obrazida mutloq hokimiyat kuchini, buyuklik va ayni paytda shafqatsizlik muvozanatini tadqiq etadi. Ko'plab adabiyotshunoslarning fikriga ko'ra Gyote Temur haqida yozar ekan, o'sha davrda butun Yevropani titratgan imperator Napoleon Bonapartga pinhona ishora qilgan va tarixiy shaxslarning insoniyat taqdiridagi rolini tahlil etgan.

"G'arb-u Sharq devoni"ning eng go'zal, eng lirik va hissiyotga boy qismi Zulayhonoma hisoblanadi. Bu yerda Sharqning "Yusuf va Zulayho" dostonlaridagi an'anaviy lirik syujet Gyote va uning kechki muhabbati — Mariana fon Villemer munosabatlariga ko'chadi. Ushbu she'rlarda Gyote o'zini dunyoni kezib yurgan saxovatli shoir "Hatam", Marianani esa uning go'zal mahbusasi "Zulayho" deb ataydi. Eng qizig'i, ushbu qismdagi bir nechta she'rlarni Mariana fon Villemerning o'zi yozgan bo'lib, ular asarga uzviy kirib ketgan. Bu satrlarda yosh va qarilik, vaqtning shafqatsizligi hamda muhabbatning abadiyligi kuylanadi. Sharq she'riyatidagi an'anaviy mayxona, pir va soqiy timsollariga asoslangan qarashlar Soqiynoma tarkibida berilgan. Gyote bu yerda soqiy va unga murojaat qilayotgan keksa shoir munosabatlarini tasvirlaydi. Biroq devondagi "may" tushunchasi moddiy ichimlik emas. U xuddi tasavvuf adabiyotidagidek – ilohiy ma'rifat, ilhom, Haq taoloning ishqi va falsafiy jo'shqinlik ramzidir. Mayxona esa erkinfikrlovchilar uchrashadigan muqaddas maskandir. Nafs va ruhan poklanish masalalari Zuhdnoma qismida davom ettiriladi. "Zuhd" so'zi dunyo lazzatlaridan voz kechish, taqvodorlik ma'nolarini beradi. Ushbu qismda inson qalbining moddiy ehtiyojlar ustidan g'alaba qozonishi va nafsni tiyish masalalari yoritiladi. Gyote inson dunyoga faqatgina yeyish-ichish va moddiy boylik to'plash uchun kelmaganini, balki ruhiy yuksalish orqali haqiqiy baxtga erishishi mumkinligini falsafiy masallar va diniy-mifologik timsollar orqali tushuntiradi.

Butun asarning muhtasham xotimasi sifatida Xuldnoma keladi. Unda Islom dinidagi va Sharq mifologiyasidagi jannat, hurisifat qizlar va oxirat olami tasvirlari keltiriladi. Gyotening talqinida jannat – bu komil inson qalbining oxirgi to'xtash joyi, ya'ni mutloq haqiqatga, Xudoga va abadiy go'zallikka erishgan ruhiy holatdir. Shoir bu qism bilan butun G'arb va Sharq sayohatini yakunlab, insoniyatning yakuniy maqsadi — tinchlik, muhabbat va ilohiy uyg'unlik ekanini ko'rsatib beradi.

"G'arb-u Sharq devoni" shunchaki she'rlardan iborat emas, asarning deyarli yarmini Gyote tomonidan yozilgan "Izoh va maqolalar" nomli nasriy qism tashkil etadi. Bu nasriy qism Yevropa sharqshunosligi uchun ulkan qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Unda Gyote arab qabilalarining qadimiy hayoti, muallaqat she'riyati tuzilishi hamda Firdavsiy, Anvari, Nizomiy, Rumi, Sa'diy, Hofiz va Jomiy ijodini tahlil qiladi. Gyote ushbu nasriy qism orqali nemis kitobxoniga o'zi yozgan she'rlarning tub mohiyatini va Sharq dunyoqarashini ilmiy asosda tushuntirib bergan. Yoxann Volfgang fon Gyotening "G'arb-u Sharq devoni" – ikki buyuk sivilizatsiyaning o'zaro hurmat va muhabbat asosidagi muloqotining eng oliy cho'qqisidir. Gyote Sharqni bo'ysundirilishi yoki o'zgartirilishi kerak bo'lgan begona dunyo deb emas, balki G'arbdagi ma'naviy inqirozni davolovchi tabib, donishmandlik maskani deb bildi. Ushbu asar keyinchalik Sharq dunyosida ham katta aks-sado berdi. Jumladan, mutafakkir Muhammad Iqbol Gyotening bu devoniga javoban o'zining mashhur "Sharq payg'omi" asarini yaratdi va Sharq bilan G'arb muloqotini davom ettirdi.

"G'arb-u Sharq devoni" bugungi kunda ham dunyoda millatlararo bag'rikenglik, madaniyatlararo muloqot va umuminsoniy tinchlikni ta'minlashda eng kuchli adabiy qurol bo'lib xizmat qilmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goethe, Johann Wolfgang von. *West-östlicher Divan*. Stuttgart: Reclam Verlag, 1994.
2. Goethe, Johann Wolfgang von. *West-Eastern Divan*. Translated by Martin Bidney. Albany: State University of New York Press, 2010.
3. Said, Edward W. *Orientalism*. New York: Vintage Books, 1979.
4. Wilson, W. Daniel. "Introduction: The Mixed Reception of Goethe's West-östlicher Divan." *Publications of the English Goethe Society*, vol. 89, 2020.
5. Lagutina, Irina N. "Goethe's West-Oestlicher Divan: An Attempt of Interpretation." *Dostoevsky and World Culture: Philological Journal*, 2019.
6. Hamdamov, B. *Nemis adabiyoti tarixi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
7. Yakubov, S. B. "Goethe in Uzbekistan (Faust tarjimasi misolida)." *Frontline Social Sciences and History Journal*, 2023.
8. Safarov, N. "Goethe ijodi va jahon adabiy aloqalari." *Jahon adabiyoti jurnali*, Toshkent, 2020.